



O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI RAISING BUYRUG‘I

Toshkent sh.

№ I-105

“02” dekabr 2024-y.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining 2025-yil malaka oshirish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorlariga muvofiq

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son va 2021-yil 27-iyundagi 385-son qarorlariga muvofiq Madaniyat vazirligining 2024-yil 29-oktyabrdagi 02-12-17-6411-son hamda tizimdagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari tomonidan Badiiy akademiyaga taqdim etilgan tegishli buyurtmanomalari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining 2025-yil malaka oshirish reja-grafigi 1-ilovaga;

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlarining 2025-yilda malaka oshiradigan pedagog kadrlar ro‘yxati 2-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziriligi tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda bolalar musiqa va san’at maktablarining 2025-yilda malaka oshiradigan pedagog kadrlar ro‘yxati 3-ilovaga;

Oliy ta'lim muassasalarining 2025-yilda malaka oshiradigan pedagog kadrlar ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi (D.Shukurov)ga:

ikki hafta muddatda 2025-yilda rejaga kiritilgan pedagog kadrlarning malaka oshirishini davlat byudjetidan moliyalashtirish choralarini ko'rsin;

ikki hafta muddatda belgilangan tartibda tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik bazani takomillashtirish, zarur hollarda, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida qayta ishlab chiqish choralarini ko'rsin;

2025-yil davomida ta'lim jarayoniga malakali bo'lgan professor-o'qituvchilar hamda sohadagi yetakchi mutaxassislarni jalb etsin;

2025-yil yanvar oyidan boshlab o'quv reja va dasturlarga muvofiq belgilangan tartibda malaka oshirish kurslarini tashkil etsin hamda tinglovchilarga ta'lim olishlari uchun yetarli barcha sharoitlarni yaratsin;

yil yakuniga qadar amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda Badiiy akademiyaga taqdim etib borsin.

4. Tizimdagi ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlari direktorlari oylar kesimida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq malaka oshiradigan pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslariga belgilangan tartibda va o'z vaqtida yuborilishini ta'minlasin.

5. Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash boshqarmasi (K.Elmirov) tegishli vazirlik va idoralarning buyurtmanomalari asosida 2025-yil rejasiga kiritilgan pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslariga o'z vaqtida kelishlarini ta'minlash choralarini ko'rsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Bosh ilmiy kotib F.Abidjanova zimmasiga yuklansin.

Rais



A.Nuridinov